

**TABIAT TURIZM TUSHUNCHASIDA YOSHLAR EKOESTETIK IDEALINI
SHAKLLANTIRISH TAJRIBALARI VA IMKONIYATLARI**

Niyazov Sobirjon Sodiqovich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

v.b.dotsent f.f.b.f.d PhD,

niyazov-s@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada, Ekologik borliqni fundamental nazariy bilishda estetikaning ontologik, gnoseologik, metodologik va praksiologik funksiyalari turli amaliy darajalarda – kundalik oddiy urf-odatlar, an'analar yoki murakkab texnik-texnologik madaniyatga asoslangan ekologik faoliyat tarzida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy-nazariy tahlil qilingan.*

Tayanch so'zlar: *ekologik madaniyat, ekologik tafakkur, ekologik tarbiya, ekoturizm, ekologik vaziyat, "bokira" tabiat, gedonistik va evdomonistik, tabiat-jamiat-inson, ekologik ehtiyoj, ekologik borliq.*

Annotation. *The article explores the ontological, epistemological, methodological, and praxeological functions of aesthetics in the fundamental theoretical understanding of ecological existence. These functions manifest at various practical levels — in the form of ecological activities based on everyday customs and traditions, or within a complex technical and technological culture. From this perspective, a scientific and theoretical analysis was conducted.*

Keywords: *ecological culture, ecological thinking, environmental education, ecotourism, environmental situation, "pristine" nature, hedonistic and eudaimonistic, nature-society-human, ecological need, ecological existence.*

Kirish: Keyingi davrda dunyoda fan-texnika taraqqiyoti, urbanizatsiya jarayoni kuchayishi, tabiatga demografik bosim kuchining oshgan sharoitida tabiatga antropogen munosabatning mavjud usul-vositalari ekologik halokatga olib kelishi muqarrarligini anglagan dunyo ilmiy hamjamiyati "kompyuterdan omochga qaytish" nazariyasini ilgari surmoqda. Ayniqsa, Yevropa va Amerikada XX asr o'rtalarida vujudga kelgan invayromentalizm nazariyasi tarafdorlari bu g'oyani izchil qo'llab-quvvatlashi kuzatilmoqda.[1,67-70 c.]. Zero, faoliyatida tor doiradagi iqtisodiy determinizmga, utilitarizm va merkantilizm psixologiyaga asoslangan turli ta'limotlarning "optimistik ruhi" keng jamoatchilik tomonidan munosib tadqiq obyektiga aylanishi tasodifiy emas. Ekologik voqelikni estetik idrok qilish va badiiy ifodalashdan iborat ma'naviy hodisasi, tabiat muhofazasining (subyektiv omili sifatida) eng umumiy va obyektiv qonuniyatlarini namoyon qiladi. Bu qonuniyat, o'z navbatida, "tabiat-jamiat-inson-san'at" tizimi munosabati yo'nalishlarining (ekologik yoki antiekologik) xarakterini belgilab berishi bilan san'atning ekologik borliqqa ta'siridagi subyektiv omil maqomini, vujudga kelishining

obyektivligini ham, funksiyasi yaxlitligini ham, istisno qilmaydi. Bulardan tashqari, shaxs ekologik ongining tabiatni muhofaza qilish faoliyatini, tabiatga estetik munosabatni shakllantirish orqali tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishdan iborat funksional rolini: 1) tabiatga estetik munosabat ekologik amaliyotni ideallashtirilgan badiiy obrazlarda aks ettirishning usullari va vositalarini takomillashtirish; 2) ekologiya tarixida yaratilgan tarixiy merosni, ijtimoiy ekologik tajribalarni badiiy obrazlarda umumlashtirish; 3) ekologik estetik qadriyatlarni “seleksiya” qilish, an'analarini saqlab, ijodiy rivojlantirib transformatsiya kommunikatsiyasi “infrastrukturasini” yaratish, “texnologiyasini” mukammallashtirishni e'tiborga olish kerak.

Bu vazifalarni amalga oshirishda asosiy muammo, nazarimizda, ekologik ong va madaniyatning estetik tafakkur usul va vositalari rivojlanishini ta'minlaydigan inson omili, intellektual potensial maqomini, xarakterini reallikka mos o'zgartirishdan iborat. Zero, hozirgi davr falsafasi va ekoestetikaga doir maxsus adabiyotlarda inson tomonidan tabiatni badiiy obrazlarda “o'zgartirish” va o'zlashtirish jarayonini muayyan ekologik makonda o'z-o'zini shaxs sifatida anglash imkoniyati tarzida e'tirof etilishi tasodifiy emas. Buning uchun ekologik ong va madaniyatni “estetik borliqqa” ko'chirishning obyektiv shart-sharoitlari va subyektiv omillarini uyg'unlashtiruvchi imkoniyatlarni qidirib topish hamda reallashtirish asosiy vazifa hisoblanadi.

Umuman, “shaxs ekologik ongi va madaniyatining tabiatga estetik munosabat xarakteriga va yo'nalishlariga ta'siri jarayonida badiiy axborot, san'at janrlari va turlarining maxsus funksional yo'nalishlari va xususiyatlari shakllanadi”. Ularning ekologik voqelikka mutanosibligini belgilaydigan universal mezon insonning tabiatga estetik munosabatini badiiy obrazlarda, san'at asarlarida hissiy-emotsional ifodalash va uni uzatish usullari, vositalari samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, shaxs ekologik ongi va madaniyati fenomenining tabiatga estetik munosabati bir tomondan individual xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy-ekologik mohiyatini badiiy obrazlarda ifodalaydi va maxsus usullar, vositalar orqali ma'naviy hayot sohalariga aylantiradi. Ikkinchi tomondan esa, shaxs ekologik ongi, madaniyati, estetik tajriba asosida, dunyoning ekologik manzarasini “badiiy o'zgartirishi” bilan, uning funksional ahamiyatini namoyon qiladi va asosiy vazifalarini belgilab beradi.

Natija: Tabiatga estetik yondashuvning maqsadi – faqat tabiiy go'zallikni qadrlash bilan cheklanib qolmay, balki ularni insoniyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimlarida o'zaro bog'langan tamoyil va qadriyatlar orqali umumiy barqaror rivojlanish jarayoniga kiritishdir. Bu jarayonda ekologik estetik qadriyatlar, diniy va madaniy an'analar, shuningdek, ilmiy bilimlar birlashtirilgan holda global ekologik muammolarni hal qilishga yordam beruvchi integratsiyalashgan yondashuvni shakllantiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy tizimlar o'rtasida murosa va hamkorlikka erishish, ekologik estetik qadriyatlarni dunyo miqyosida keng tarqatish imkoniyatlarini yaratadi va atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatli munosabatni rivojlantiradi.[2,B.26.].

Bunda asosiy muammo, yuqorida ko'rsatilgan, barcha sohalar, yo'nalishlar integratsiyasini tashkillashtirish va boshqarishning samarali usul-vositalarini topish, jarayon izchilligini ta'minlash mexanizmlarni aniqlashdan iborat. Hozir planetar masshtabda vujudga kelgan global ekologik muammolar yaxlitligini hal qilish zaruriyati, turli madaniyat sohalarining, barcha ijtimoiy munosabatlarning madaniyat shaklida namoyon bo'lishi nazarda tutilmoqda tabiatga estetik munosabatni shakllantirish masalasida umumiy pozitsiyaga ega. Chunki, insoniyat sivilizatsiyasi natijalarini kelajak avlod uchun saqlab qolish mas'uliyati, har qanday milliy, diniy, siyosiy, mafkuraviy iddaolardan voz kechib, umumiy murosaga kelishni taqozo qilishi natijasida, jahon hamjamiyati tomonidan, uning konstruktivratsional usul-vositalari, ta'sirchan mexanizmlari qidirilmoqda.

Ekologik faoliyatning tarixiy tajribalari shuni tasdiqlaydi-ki, ekologik muhiti sog'lom bo'lmagan jamiyatlarda tabiatga estetik munosabat "qashshoqligi" va uning boshqa ehtiyojlar ortida qolib ketishi natijasida shakllanadi. Buning ustiga, uni shakllantiruvchi usul-vositalar o'z bo'lsa, umuman tabiatga estetik munosabat va uni ifodalash shakllari rivojlanishi haqida gap bo'lishi mumkin emas. Chunki inson tabiatni o'zgartirish va o'zlashtirish jarayonida, foydalanayotgan usul-vositalar mazmunida, tabiatga estetik munosabatni shakllantiruvchi usulvositalari, texnologiyasi bilan uzviy aloqadorligining nazariy-metodologik asoslarini ta'minlay olmasa, faoliyat, to'liq ma'noda, samarali bo'lmaydi.

Ijtimoiy falsafa va estetika fanlarida tabiatga estetik munosabat subyektlari, uning tuzilishi, funksiyalari nisbatan batafsil tadqiq qilingan. Biroq, nazarimizda bu subyektlar faoliyati samaradorligini ta'minlaydigan usul-vositalar, mexanizmlar yaxlitligi tadqiqotchilar diqqat-e'tiboridan chetda qolmoqda. Kuzatishlar shuni tasdiqlamoqdaki, shaxsning "ekoestetik sifatini", nafaqat uni o'rab turgan tabiiy atrof-muhit, landshaft ekologik garmoniyasi (go'zalligi), balki unga munosabatni bilish va uni ifodalash usulvositalari mukammalligi ham belgilaydi. Bu esa, o'z navbatida, ularni takomillashtiruvchi mexanizmlar samaradorligiga bog'liq bo'ladi.

Eng muhimi, birinchidan, insonning tabiatga estetik munosabati xarakteri ham, ularni badiiy obrazlarda ifodalash maqsadi ham, shu usul-vositalar rivojlanish darajasiga mos bo'ladi. Ikkinchidan, umuman tabiatga ekologik munosabat xarakterini, xususan ekoestetik dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy-axloqiy mezonlar yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalar go'zallikning mohiyatini tashkil qiladi. Uchinchidan, tabiatga estetik munosabatning obyektiv shart-sharoitlari va imkoniyatlarini reallikka aylantirish usul-vositalarning maqsadga adekvatligi tamoyili, ularning insonparvarlik mazmunini namoyon qiladi. To'rtinchidan, tabiatga estetik munosabatni shakllantirish usul-vositalariga differensial yondashish, uning samaradorligini va intensivligini ta'minlash shartidir. Beshinchidan, ekoestetik qadriyatlar ommaviyligi, uni shakllantirish va transformatsiya qilish usul-vositalarini qo'llaydigan subyektlar intellektual salohiyatiga, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy mexanizmlarining demokratik insonparvarlik xarakteriga mos bo'ladi.

Har qanday jamiyat tabiatni muhofaza qilishning o'ziga xos ma'naviy axloqiy asoslarini yaratib, odamlar ongida ekologik ma'rifiy, axloqiy, huquqiy, diniy, qadriyatlarni shakllantirmasdan, o'z kelajagini ta'minlay olmaydi. Zero, har qanday tarixiy davrda "ma'naviy-ruhiy tiklanish insonning yerga va uning boyliklariga bo'lgan munosabatini o'z ichiga olishi lozim".[3,13-14 b.].

Umumlashtirib aytganda, bir tomondan, tabiatga estetik munosabatning aksiologik funksiyasi insonning ekologik faoliyatini tashkillashtirish, boshqarish jarayonlarini muvofiqlashtirishi bilan praksiologik ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi tomondan esa, ekoestetik qadriyatlarning praksiologik ahamiyati, ularni hayotga tatbiq qilish usullari, vositalari, texnologiyasi rivojlanishiga bog'liq bo'ladi.

Metodlar va metodologiya: Ekologik faoliyatni ekoestetik qadriyatlarga asosan tashkil qilishning yana bir muhim tomoni, uning tabiatga estetik munosabat usullarini, vositalarini bilish va optimalini tanlashida namoyon bo'ladi. Zero, har qanday amaliy faoliyatda, uning ratsional va konstruktiv usulini qo'llash, natijalar samaradorligini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan tabiatga estetik munosabatni shakllantirish usulvositalari, texnologiyasi, mexanizmlarining ahamiyatini aniqlash masalasida, ularning praksiologik va gnoseologik, ratsional va irratsional yo'nalishlari birligini e'tiborga olish zarur. Chunki bu talab, ularning tarixiy-mantiqiy uzviyligi bilan izohlanadi va mustahkam aloqadorligini bildiradi.

Bu ekoestetik dunyoqarashning ruhiy-amaliy va gnoseologik tomonlari birligini ham ifodalaydi. Chunki inson faoliyati tabiatga estetik munosabat usullarini, vositalarini rivojlantirishga oid turli muqobil nazariyalarni, ilmiy loyihalarni, amaliy xatti-harakat dasturlarini ekologiyalashtirish va estetikalashtirishdan iborat. Boshqacha qilib aytganda, umuman dunyoqarash, xususan ekoestetik dunyoqarash tabiatga estetik munosabatining ma'naviy va amaliy yo'nalishlarini tashkillashtirish va boshqarish funksiyasini bajaradi.

Bu funktsiyaning subyektiv omil sifatidagi faoliyati – inson ongiga, turmush tarziga ekoestetik qadriyatlarni mifologiya, afsona, din, ilm-fan, falsafa va boshqa ijtimoiy ong shakllari orqali singdirish usul-vositalarini qo'llashida namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, ekoestetik qadriyatlar, ularni transformatsiya qiluvchi usul-vositalar, vujudga kelish genezisi va tarixiy zaruriyatiga ko'ra, obyektiv hodisadir. Ya'ni ekoestetik qadriyatlarni yaratish va transformatsiyasida, obyektiv shart-sharoit va subyektiv omil munosabatining o'zaro taqozolanganlik dialektikasi amal qiladi.

Ekoestetik dunyoqarashning yana bir praksiologik-gnoseologik ahamiyati, uning konstruktiv-ratsional usul-vositalarini yaratish bilan xarakterlanadi. Zero, ularsiz ekoestetik faoliyatning samaradorligiga erishish mushkul. Ular, bir tomondan, shaxsning tabiatga estetik munosabatini shakllantirish jarayonini tartibga solishni, tarixiy-mantiqiy izchillikni badiiy obrazlarda ifodalashga imkoniyat yaratadi. Ikkinchi tomondan, ekoestetik dunyoqarash insonning amaliy faoliyatini maqsadga muvofiq yo'naltirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, insonning ijtimoiy qadriyatlarga xos ekoestetik ideallarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Shunday qilib, funksional ahamiyatiga ko'ra, insonning tabiatga estetik munosabatini ekoestetik dunyoqarash (nazariy-gnoseologik) va amalga oshirish usullari-

vositalari (amaliy-praksiologik) yo'nalishlarga ajratib o'rganish muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki ular bilish obyekti sifatida o'ziga xos rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lib, ehtiyoj - maqsad - vazifa - usul - vosita - texnologiya - innovatsiya tizimida aniq funksiyani bajaradi. [4-№4-B.15-17.].

Qadimiy davrlarda ekologik ong va madaniyatning aks etishi, asosan, antik san'at asarlarida va tarixiy-badiiy manbalarda o'z ifodasini topgan. Bu davrda xalq og'zaki ijodining (miflar, afsonalar, ertaklar, maqollar va boshqalar) namunalarida, shuningdek, g'orlar va tog' xarsanglariga bitilgan tasvirlarda ekologik tafakkur o'z aksini topgan. Jamiyat tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan ekologik ong va madaniyat rivojlanishining umuminsoniy g'oyalari tabiatga estetik munosabatni shakllantirishda katta rol o'ynagan. Bu g'oyalarni ifodalashning mental xususiyatlari aniqlashib, insoniylikka zid bo'lgan antiekologik faoliyatni ham yuksak badiiy obrazlarda ko'rsatish orqali kishilarni tabiat go'zalliklarini sevishtirish, ularni asrab-avaylash kabi ma'naviy-axloqiy kamolotga da'vat etib kelgan. Shuning uchun ham san'at asarlarida tabiatga yovuzlikni badiiy obrazlarda adekvat aks ettirishi bilan antiekologik faoliyatni targ'ib-tashviq qilish o'rtasida hech qanday umumiylik yo'q. Ekologik voqelikka shaxsning estetik munosabati va uni san'at asarlarida badiiy obrazlarda realistik aks ettirishi tarixiy tajribalari tahlili shuni ko'rsatadiki, u ham boshqa ijtimoiy ong shakllari kabi, jamiyatning hukmron ustqurma elementlari xarakteriga, obyektiv shart-sharoiti va subyektiv omillariga bog'liq bo'lgan. Xususan, mustabid tuzumda ekologik borliq san'at turlarida sinfiylik, partiya viylik tamoyillariga mos tarzda ifodalangan. Ya'ni, ekologik voqelikni obyektiv, xolis yoritish ta'qiqlangan va bunga jur'at qilgan ijodkorlar qatag'onga uchragan.

Shaxs va jamiyatning tabiatga estetik munosabatini shakllantirish ijodiy mehnat natijasi bo'lib, tabiatni san'at asarlarida badiiy obrazlarda aks ettirish – “qayta kashf etishi”, deb baholash mumkin. Boshqacha qilib aytganda, insonning tabiat go'zalligiga o'z shaxsiy va individual estetik munosabatini badiiy obrazlar yordamida ifodalash faoliyatini ekologik ongi va tafakkurini amalda “qayta yaratish”, “moddiylashtirish” usuli sifatida qarash kerak. Shuningdek, uning natijalarini obyektlariga (umuman jamiyat, xususan ijtimoiy birliklar, shaxs tiplari nazarda tutilmoqda) san'at asarlari orqali tabiatni muhofaza qilish g'oyalarni transformatsiya qilish vositasidir.

Tabiatga estetik munosabat jarayoni va uni badiiy obrazlarda ifodalash san'atida, shaxsning subyektiv emotsional-hissiy ekologik dunyoqarashi, individual hayotiy tajribasi “obe'ktivlashib”, amaliy faoliyati mohiyati ham, funksiyasi ham (san'at janrlari va shakllarida) turlicha ifodalanadi. Ularning umumiyligi maqsad va vazifalar yagonaligida bo'lsa, farqi ifodalash usullari va transformatsiya vositalaridadir. Lekin, turli san'at janrlarining ekologik voqelikni (xususan, madaniyatni) badiiy obrazlarda ifodalash doirasidagi integratsiyalashuvi tabiatga estetik munosabat yaxlitligini va adekvatligini ta'minlaydi.

Tahlil: “Shaxs ekologik ong va madaniyatining tabiatga estetik munosabatni shakllantirishiga ta'siri murakkab dialektik jarayon bo'lib, insoniyatning tabiatni muhofaza

qilish tarixiy tajribasini umumlashtiruvchi badiiy obrazlarda namoyon bo'ladi"[5,530-531.B.]. Bunda badiiy obrazlarning real ekologik voqelikka mutanosibliigi, uning nisbiy mustaqilligini inkor qilmaydi, aksincha obyekt va subyektning funksional uyg'unligini namoyon qiladi. Boshqacha qilib aytganda, ekologik ong va madaniyatning estetiklashuvi boshqa ijtimoiy ong shakllarini ham tabiatni muhofaza qilish maqsad-manfaatlari doirasida birlashtiradi. O'z navbatida, ekologik borliqni estetik idrok qilishning ustuvorlashuvi qonuniyat maqomiga ega bo'lib, kelajakda ham o'z mavqeini yo'qotmaydi.

"Ekologik ongning shaxs estetik tajribasi subyektiga va obyektiga, madaniyat shakliga aylanishi jarayonida konservativ - eskilik bilan progressiv - yangilik, real voqelik bilan badiiy haqiqat ilmiy nazariya bilan ijtimoiy amaliyot o'rtasidagi ziddiyat doimiydir"[6,9-14.B.]. Shu bilan birga, shaxs ekologik ong va madaniyatini estetik usulvositalar, badiiy adabiyot janrlari va san'at shakllari bilan ommaga transformatsiya qilish orqali ongda shakllangan psixologik aqidalarni o'zgartirish muayyan vaqtni taqozo qiladi.

Tabiatga ekologik munosabatni badiiy obrazlarda ifodalashning real voqelikdan nisbiy mustaqilligi, xususan, orqada qolishi, bir tomondan, mavjud ijtimoiy-siyosiy tizimning volyuntaristik g'oyaviy-mafkuraviy ta'siridan mutlaq xoli bo'la olmasligi natijasidir. Ikkinchi tomondan, ekologik ong va madaniyatning globallasuvi jarayonida milliy, hududiy qadriyatlar integratsiyasida birlashtiruvchi subyekt va integratsiyalashuvchi obyekt o'rtasidagi muayyan ziddiyatlarni bartaraf qilishi bilan bog'liq bo'lgan yangi ziddiyatlar kelib chiqadi. Umuman, ijtimoiy hayot ziddiyatlari tizimining ekologik ongga ham, uni estetik ifodalash usulvositalari rivojlanishiga ham bevosita ta'sir qilishini boshqarish ushbu sohadagi manfaatlarni uyg'unlashtirishga bog'liqdir. "[7,56.C.].

Jamiyat ekologik borlig'idagi ushbu ko'rsatilgan ziddiyatlarni bartaraf qilish zaruriyati ekologik ong va madaniyatning nafaqat tabiatga estetik munosabatini shakllantirishga, balki uning boshqa ma'naviy-axloqiy, ijtimoiysiyosiy asoslarini rivojlantirishga ham bog'liqdir. Boshqacha qilib aytganda, "ekologik ong va madaniyatning ijtimoiy ong shakllarini integratsiyalashtiruvchi imkoniyatini, aynan uning o'zini rivojlantiruvchi imkoniyati tarzida olib qarash lozim". Chunki ekologik ong estetiklashuvi kuchayishi bilan, boshqa ijtimoiy ong shakllari ekologiyalashuvining yangi yo'nalishlari, masalan, ekologik-huquqiy ong, ekologik-iqtisodiy ong, ekologik-siyosiy ong va boshqa ong shakllari va ularning institutsional tizimi paydo bo'lmoqda. Jamiyatning tabiatga estetik munosabat ehtiyojlari va manfaatlari ekologik ong va madaniyat rivojlanishining harakatlantiruvchi motivi va asosiy harakatlantiruvchi mexanizmi hisoblanadi. Shunga ko'ra, shaxs ekologik ongi va madaniyatining tabiatga estetik munosabatni belgilash imkoniyati har qanday tarixiy davrda jamiyat tomonidan belgilab berilgan aniq vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Shu sababdan ham, uning vazifalari ekologik muammolarning ustuvor yo'nalishlariga mos tarzda turli davrlarda turlicha talqin qilingan". [8, -№1-21.C.].

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida, ekologik borliqqa estetik munosabat, mohiyati va xarakteriga ko'ra, shaxs ekologik faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dunyo ekologik manzarasinining xaritasini,

voqelik xarakterini belgilashda ekoestetik tafakkur tabiatga estetik munosabat rivojlanish tarixi va uning davrlari uchun asosiy mezon va ko'rsatkichdir. Bundan tashqari ekologik ong va madaniyatning tabiatga estetik munosabatni shakllantirish imkoniyatlari, uni ifodalash usullarini, vositalarini ham qamrab oladi. Tabiatga estetik munosabat bilan ekologik ong va madaniyat rivojlanish darajasi o'rtasida korrelyatsion bog'lanish mavjud bo'lib, biri ikkinchisining rivojlanishini rag'batlantiradi. Ekologik ongning boshqa ijtimoiy ong shakllarini integratsiyalashtiruvchi potentsiali tabiatga estetik munosabatni funksional jihatdan universallashtiradi.

ADABIYOTLAR:

- 1.Бердимуродова А.К.Философско-методологический анализ современного экологическое ситуации на пороге XXI века. -Т.: 1999. –С. 67-70.
- 2.Айматов А.Қ Шахсинг табиятга экоэстетик муносабатини шакллантириш масалалари. -Тошкент: Фан ва технология, 2017. -Б.26.
- 3.Niyazov.S.S. Yoshlarda ekoestetik idealni shakllantirishda tabiat turizmining o'rni va roli. :Avtoreferat.-Buxoro-2024:.-b.13-14.
4. Усмонов Э. Экологик муносабатларнинг глобаллашуви. //Тафаккур. –Тошкент: 2009. –№4.–Б. 15-17.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. -Тошкент: “Ўзбекистон”, 1998. -Б. 530-531.
- 6.Niyazov.S.S.Yoshlarda ekoestetik idealni shakllantirishda tabiat turizmining o'rni va roli. :Monografiyasi.“Big Makro World”Qarshi shahri 2025.-B.9-14.
- 7.Мамашокиров С. Роль социально-политических факторов в формировании экологической активности и ответственности: Автореф. дис. ... док. филос. наук. - Ташкент: 1997. -С.56.
- 8.Шермухамедова Н.А. Закономерное развития экологического мышления. //Вестник экологии. -Тошкент: 2002, №1 -С.21.
9. Nomozov, Xurshid. "JAMIYATDA INTERNET-MAKON RESURLARIDAN FOYDALANISH OHALARI." *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS* 1.2 (2024): 113-118.
10. O'G'Li, Nomozov Xurshid Shavkat. "YUKSAK AXBOROT MADANIYATI-INTERNET-MAKON RESURLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI." *Research Focus* 2.6 (2023): 105-110.
11. Nomozov, Xurshid. "THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS." *Gospodarka i Innowacje* 22 (2022): 229-231.
12. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOYILASHUV SHAKLLARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR, 1(2), 52-58.

13. Nomozov, Xurshid. "JAMIYAT IJTIMOYILASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O'RNI." *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION* 1.2 (2024): 83-88.
14. Nomozov Xurshid Shavkat o'g'li. "YOSHLARNING IJTIMOYILASHUVIDA INTERNET TARMOQLARINING O'RNI." *Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari* 5.2 (2025): 27-31.
15. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOYILASHUV SHAKLLARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR, 1(2), 52-58.
16. NOMOZOV XURSHID SHAVKAT O'G'LI. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR* 1.2 (2024): 48-51.
17. NOMOZOV XURSHID SHAVKAT O'G'LI "AXBOROT XURUJINING O'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI." *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 1285-1287.
18. Nomozov, Xurshid. "JAMIYAT IJTIMOYILASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O'RNI." *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION* 1.2 (2024): 83-88.
19. Nomozov, Xurshid. "OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING IJTIMOY FUNKSIYASI." *TAMADDUN NURI JURNALI* 1.64 (2025): 253-255.
20. Номозов, Х. "ИНТЕРНЕТ-МАКОН ТАЪСИРИДА СОДИР БЎЛАЁТГАН НЕГАТИВ ИЖТИМОЙЛАШУВ ШАКЛЛАРИ." *Философия и право* 26.3 (2023): 232-235.
21. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *Farg'ona davlat universiteti*,(3) (2023): 67-67.